


## 2019 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2019 yil 1 aprel holatiga ko'ra, 22,8 mingdan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 14,2 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan.


### 2019 yil 1 aprel holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 9,5 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini

tashkil etadi. 2019 yil 1 aprel holatiga ko'ra, ularning ulushi 66,8 % tashkil etdi.

**2019 yil 1 aprel holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %**



2019 yil 1 aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (38,0 %) yuqori.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 6,8 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,7 % ni tashkil etdi.

**2019 yil 1 aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,7 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1822,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,9 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (32,5 %), transport xizmatlariga (22,1 %), moliyaviy xizmatlarga (13,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (5,4 %) yuqori ulushlar ketme-ketligi kuzatildi.

### 2019 yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2019 yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 280,4 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2019 yil yanvar-fevral oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 635,4 mlrd. so'mga ko'paydi.

### 2019 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (204,6 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (141,0 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (84,8 mlrd. so'mga) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (27,7 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**Ma'lumot uchun:** 2018 yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari – 75,1 mlrd. so'm, transport xizmatlari – 44,7 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 90,6 mlrd. so'm, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 13,0 mlrd. so'mga oshgan.


## 2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>1822,3</b>	<b>107,9</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	98,7	98,9
moliyaviy xizmatlar	253,1	151,1
transport xizmatlari	403,7	103,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	383,5	101,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	53,8	98,7
savdo xizmatlari	592,1	102,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	59,7	102,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	59,7	121,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	21,3	120,2
ijara xizmatlari	51,1	93,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	65,7	100,6
shaxsiy xizmatlar	68,8	102,1
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	21,7	119,3
boshqa xizmatlar	72,9	100,0

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (151,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (121,9 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(120,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (119,3 %) xizmat turlarida qayd etildi.

### 2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




O'tgan yilning shu davriga nisbatan kamayish sur'ati ijara xizmatlarida (93,5 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (98,7 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (98,9 %) kuzatildi.

Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (100,6 %), shaxsiy xizmatlar (102,1 %) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (102,2 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2019 yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 32,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (22,1 %), moliyaviy xizmatlar (13,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,4 %) egallaydi.



## 2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



2019 yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 592,1 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi




ulushi 32,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 75,1 mlrd.so'mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2019 yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 83,3 % ni tashkil etadi.



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,0 % ni egallaydi.


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2019 yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 98,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi davrga nisbatan o'sishi 34,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,8 % ni tashkil etadi.

### 2019 yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2019 yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 253,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 151,1 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (93,1%) tashkil etadi.

### 2019 yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy

avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2019 yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 59,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 21,9 % tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 53,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,9 % ga yetdi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 92,0 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 8,0 % ga to'g'ri keladi.


2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyat</b>	<b>1822,3</b>	<b>107,9</b>
Qarshi sh.	943,3	112,7
Shahrisabz sh.	57,2	109,7
G'uzor	59,7	101,6
Dehqonobod	41,2	102,8
Qamashi	59,7	103,3
Qarshi	71,9	103,1
Koson	98,3	104,5
Kitob	84,9	104,6
Mirishkor	39,6	108,3
Muborak	59,8	91,5
Nishon	56,1	103,7
Kasbi	38,8	103,1
Chiroqchi	71,5	103,3
Shahrisabz	66,2	103,2
Yakkabog'	74,1	103,5

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (943,3 mlrd.so'm), Koson (98,3 mlrd.so'm), Kitob (84,9 mlrd.so'm), Yakkabog' (74,1 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Kasbi (38,8 mlrd.so'm), Mirishkor (39,6 mlrd.so'm), Dehqonobod (41,2 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.

### 2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari G'uzor (101,6 %), Dehqonobod (102,8 %) tumanlarida kuzatildi. Muborak tumanida esa kamayish sur'ati (91,5 %) kuzatildi.



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyati tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**2019 yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %**



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (51,8 %), Koson (5,4 %), Kitob (4,7 %) va Yakkabog' (4,1 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Kasbi (2,1 %), Mirishkor (2,2 %), Dehqonobod (2,3 %) va Nishon (3,1 %) tumanlari to'g'ri keladi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019 yil yanvar-fevral oylariga nisbatan hajm 192,9 ming so'mga oshib, 566,0 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 77,2 ming so'mga farq qildi.

Hududlar orasida bu ko'rsatkich Qarshi shahrida 3475,6 ming so'mdan, Chiroqchi tumanida 178,3 ming so'mgacha oralig'ida farq qildi. Chiroqchi tumanida aholi jon boshiga ko'rsatkichi nisbatan pastligi, ushbu hududdagi aholining ko'pligi bilan bog'liq. Taqqoslash uchun, Muborak tumanida aholi soni juda oz, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi nisbatan yuqori. U 703,5 ming so'mga teng.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning maksimal o'sishi Qarshi shahrida (11,3 %), Shahrisabz shahrida (7,7 %), Mirishkor (6,3 %) va Kitob (2,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Dehqonobod va Chiroqchi (100,6 %), kamayish sur'atlari Muborak (89,6 %) va G'uzor (99,9 %) tumanlarida qayd etildi.

## 2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
75-221-44-32  
71-230-84-03